Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
Akhtmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
Chakkanov Fakhriddin Xusanovich	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
Irgashev Shokhruxh Khasanovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
Almatova Umida Islomovna	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
Nosirova Shohista Elmurodovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
Sh. D. Ablakulov	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
Ismoilov Bobur Toxirovich	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
Ismailov Murodulla Kahramonovich	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
Avazova Farangiz Ixtiyor qizi	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Tekstari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

MATEMATIK FIZIKA TENGLAMALARI FANINI O'QITISHDA YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR BO'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

Murzambetova Mexriban Begdullayevna
f.-m. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik fizika tenglamalari fanini o'qitish jarayonida yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining pedagogik va metodologik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda yuqori tartibli differensial tenglamalarning nazariy asoslari, ularning turli fizik jarayonlarni modellashtirish va muhandislik masalalarini yechishdagi amaliy qo'llanilishi yoritiladi. Shuningdek, mazkur bo'limni o'qitish orqali talabalarning mantiqiy fikrlash, matematik tahlil va fizik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: matematik fizika tenglamalari, differensial tenglamalar, o'qitish metodikasi, fizik jarayonlarni modellashtirish, matematik ta'lim, amaliy matematika.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological significance of the section on higher-order differential equations in teaching the course Equations of Mathematical Physics. The study examines the theoretical foundations of higher-order differential equations and their application in modeling physical processes and solving engineering problems. In addition, the role of this section in developing students' logical thinking, mathematical analysis skills, and physical reasoning is substantiated.

Key words: equations of mathematical physics, differential equations, teaching methodology, physical process modeling, mathematical education, applied mathematics.

Аннотация: В статье проводится всесторонний анализ педагогического и методологического значения раздела дифференциальных уравнений высших порядков при преподавании дисциплины "Уравнения математической физики". Рассматриваются теоретические основы дифференциальных уравнений высших порядков, их применение при моделировании физических процессов и решении инженерных задач. Особое внимание уделяется роли данного раздела в формировании у студентов математического и физического мышления, а также навыков аналитического рассуждения.

Ключевые слова: уравнения математической физики, дифференциальные уравнения, методика обучения, моделирование физических процессов, математическое образование, прикладная математика.

KIRISH

Matematik fizika tenglamalari zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, fizika, matematika, muhandislik hamda boshqa tabiiy fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Mazkur fan fizik jarayon va hodisalarni matematik modellar yordamida ifodalash, tahlil qilish hamda ularning rivojlanishini bashoratlash imkonini beradi. Matematik fizika tenglamalari kursi tarkibida yuqori tartibli differensial tenglamalar alohida o'rin egallaydi va ularni chuqur o'rganish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori tartibli differensial tenglamalar nafaqat matematik nazariyaning murakkab va muhim bo'limi sifatida, balki real fizik tizimlarni modellashtirishning samarali vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, elastiklik nazariyasi, kvant mexanikasi, to'liq jarayonlari, elektrodinamika va boshqa ko'plab ilmiy yo'nalishlarda ushbu tenglamalar asosiy matematik aparat sifatida keng qo'llaniladi. Shu bois, yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limini o'qitish talabalarning kelgusidagi ilmiy tadqiqot faoliyati va amaliy muhandislik ishlariga tayyorlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi ^[1].

Mazkur bo'limning o'rganilishi talabalarda matematik abstrakt fikrlash qobiliyatini, murakkab masalalarni hal etish ko'nikmalarini hamda fizik jarayonlarni matematik til orqali ifodalash malakasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, yuqori tartibli differensial tenglamalar ko'pincha aniq analitik yechimga ega bo'lmagani sababli, ularni



o'rganish jarayonida talabalar zamonaviy hisoblash usullari va raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini ham egallaydilar. Bu esa ularni sonli usullar asosida masalalar yechishga tayyorlashga xizmat qiladi ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqotda yuqori tartibli differensial tenglamalarning matematik fizika ta'limidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish maqsadida adabiyotlar tahlili metodidan foydalanildi. Tadqiqot doirasida yuqori tartibli differensial tenglamalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari hamda ularning ta'lim jarayonidagi o'rni haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Matematik fizika tenglamalari fanining asosiy maqsadlaridan biri talabalarni fizik masalalarni matematik usullar yordamida yechishga o'rgatishdan iborat bo'lib, yuqori tartibli differensial tenglamalar ushbu maqsadga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

A.N. Tikhonov va A.A. Samarskiyning klassik asarlarida matematik fizika tenglamalarining umumiy nazariyasi hamda ularni o'qitish metodologiyasi keng yoritilgan bo'lib, unda yuqori tartibli tenglamalarning maxsus sinflariga alohida e'tibor qaratilgan ^[3]. Mazkur yondashuvlar yuqori tartibli tenglamalarni o'rganish ikkinchi tartibli differensial tenglamalar nazariyasini yanada chuqurroq tushunish va umumlashtirish imkonini berishini ko'rsatadi. V.S. Vladimirov va boshqa rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yuqori tartibli elliptik va giperbolik tenglamalarning nazariy asoslarini hamda ularning amaliy qo'llanilishini yoritadi ^[4]. Ularning ishlarida yuqori tartibli tenglamalarning kvant maydon nazariyasi va statistik fizika kabi zamonaviy fizik nazariyalarda fundamental ahamiyatga ega ekanini ta'kidlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitish talabalarning matematik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. G.I. Marchuk va V.I. Agoshkov yuqori tartibli tenglamalarni sonli yechish usullarini o'rgatish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydilar ^[5]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu bo'limni o'qitishda nazariy materiallar bilan amaliy masalalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston olimlaridan M.M. Mavlonov va M.S. Saloxiddinov o'z ilmiy ishlarida matematik fizika tenglamalarini o'qitishning milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan metodlarini taklif etadilar ^[6]. Ular yuqori tartibli tenglamalarni o'zbek tilida o'qitish va ularni mahalliy ta'lim an'analari bilan uyg'unlashtirish zarurligiga alohida urg'u beradilar. Xorijiy tadqiqotchilardan L.C. Evans va S.J. Farlow yuqori tartibli qisman hosilali differensial tenglamalarning zamonaviy nazariyasi hamda ularni o'qitish metodikasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shganlar ^[7]. Ularning tadqiqotlari yuqori tartibli tenglamalar talabalarni murakkab matematik tushunchalar bilan ishlashga o'rgatishda samarali vosita ekanini ko'rsatadi.

Yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitish jarayonida ularning fizik mazmunini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, to'rtinchi tartibli elastik tenglamalar balka va plastinkalarning egilishi masalalarini yechishda, oltinchi va undan yuqori tartibli tenglamalar esa murakkab deformatsiya jarayonlarini tavsiflashda qo'llaniladi ^[8]. Ushbu tenglamalar orqali talabalar nazariy matematika bilan amaliy muhandislik muammolari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglab yetadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida nazariy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida matematik fizika tenglamalari, differensial tenglamalar nazariyasi hamda ularni o'qitish metodikasiga oid fundamental va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi. Adabiyotlar tahlili asosida yuqori tartibli differensial tenglamalarning nazariy xususiyatlari va ularning fizik jarayonlarni modellashtirishdagi imkoniyatlari umumlashtirildi.

Shuningdek, pedagogik tahlil metodi yordamida mazkur bo'limni o'qitishning ta'limiy samaradorligi baholandi. Taqqoslash va umumlashtirish usullari orqali ikkinchi tartibli hamda yuqori tartibli differensial tenglamalarning o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitish talabalarning matematik tafakkuri, tahliliy fikrlash qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining matematik fizika tenglamalari fanida o'rganilishi bir qator muhim ilmiy va didaktik natijalarga olib keladi. Avvalo, mazkur bo'lim talabalarning matematik apparatini sezilarli darajada kengaytiradi hamda ularni murakkab matematik tushunchalar bilan ishlashga o'rgatadi. Ikkinchi tartibli differensial tenglamalardan farqli ravishda, yuqori tartibli tenglamalar yanada umumiy xarakterga ega bo'lib, ularni o'rganish jarayonida talabalarda abstrakt fikrlash va umumlashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Yuqori tartibli differensial tenglamalar yechimlar fazosining tuzilishi, chegaraviy masalalarning qo'yilishi hamda yechimlarning yagonaligi bilan bog'liq masalalar talabalarni chuqur nazariy tahlil olib borishga undaydi.



Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitishda eng samarali yondashuv nazariy asoslarni amaliy qo'llanmalar bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. Jumladan, elastiklik nazariyasida keng qo'llaniladigan Euler–Bernulli balka tenglamasi to'rtinchi tartibli differensial tenglama bo'lib, u muhandislik ta'limida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi ^[9]. Ushbu tenglama misolida talabalar nazariy matematika bilimlarini real muhandislik masalalarini yechishga tatbiq etish imkoniyatini ko'radilar. Bunday integrativ yondashuv talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiradi va fanlararo bog'lanishlarni anglashlariga yordam beradi.

Yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitishning yana bir muhim jihati ularning sonli yechish usullari bilan chambarchas bog'liqligidir. Amaliyotda ko'plab yuqori tartibli tenglamalar analitik usullar yordamida yechilmaydi, shu sababli ularni yechishda sonli metodlardan foydalanish zarurati tug'iladi. Bu holat talabalarni zamonaviy hisoblash texnologiyalari hamda dasturlash muhitlari bilan ishlashga tayyorlaydi. Chekli elementlar usuli, chekli ayirmalar usuli va spektral metodlar kabi zamonaviy sonli yondashuvlar yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechishda keng qo'llaniladi ^[10]. Ushbu metodlarni o'rganish talabalarni ilmiy tadqiqot va amaliy muhandislik faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi.

Bundan tashqari, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitish talabalarning matematik rigorizmga bo'lgan talabchanligini oshiradi. Yuqori tartibli tenglamalar uchun yechimlarning mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremlarni isbotlash, zaif yechimlar tushunchasini kiritish hamda Sobolev fazolari kabi zamonaviy funksional tahlil apparatlaridan foydalanish talabalarning matematik madaniyatini sezilarli darajada yuksaltiradi. Bu esa ularni kelajakda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishga puxta tayyorlaydi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitishda bosqichma-bosqich yondashuv eng samarali hisoblanadi. Dastlab sodda holatlar va maxsus yechimlar bilan tanishtirilgan talabalar keyingi bosqichda umumiy nazariya hamda murakkab masalalarni o'zlashtiradilar. Bunday yondashuv talabalarning bilim va ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'rganish talabalarning fizik intuitsiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, to'rtinchi tartibli elastiklik tenglamalarida ikkinchi tartibli hosilalar deformatsiyani, to'rtinchi tartibli hosilalar esa ichki kuchlanishlarni ifodalaydi. Ushbu bog'liqlikni anglash orqali talabalar fizik jarayonlarni chuqurroq idrok etadilar hamda matematik modellar bilan real fizik tizimlar o'rtasidagi munosabatni yanada aniqlik bilan tushunib yetadilar.

Yuqori tartibli differensial tenglamalarning matematik fizika ta'limidagi ahamiyatini tizimli tahlil qilish maqsadida ularning turli fizik sohalardagi qo'llanilishi va pedagogik ta'siri o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori tartibli differensial tenglamalar zamonaviy fizika va muhandislikning deyarli barcha sohalarida keng qo'llaniladi hamda ularni o'qitish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi (1-jadval).

1-jadval: Yuqori tartibli differensial tenglamalarning fizik sohalardagi qo'llanilishi

Tenglama tartibi	Fizik soha	Qo'llanish misoli	Amaliy ahamiyati
4-tartib	Elastiklik nazariyasi	Balka va plastinkalar egilishi	Muhandislik konstruksiyalarini loyihalash
4-tartib	Kvant mexanikasi	Schrödinger tenglamasi modifikatsiyalari	Atom va molekula tuzilishini o'rganish
6-tartib	Elastik plastinkalar	Murakkab deformatsiya jarayonlari	Zamonaviy konstruksion materiallar tahlili
8-tartib	Kvant maydon nazariyasi	Yuqori energiya fizikasi	Fundamental zarralar o'zaro ta'sirini modellashtirish

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yuqori tartibli differensial tenglamalar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy muhandislik faoliyati va ilmiy tadqiqotlarda ham keng qo'llaniladi. Xususan, to'rtinchi tartibli differensial tenglamalar muhandislik ta'limida eng ko'p uchraydigan tenglamalar qatoriga kiradi. Ushbu tenglamalarni o'rganish jarayonida talabalar real konstruksiyalarning mexanik xatti-harakatini modellashtirish va bashorat qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Shu bilan birga, oltinchi va undan yuqori tartibli differensial tenglamalar yanada murakkab fizik tizimlarni tavsiflashga xizmat qiladi hamda ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan talabalar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tenglamalarni o'rganish talabalarning chuqur nazariy bilimlarini shakllantirishga, shuningdek, murakkab ilmiy muammolarni tahlil qilish va yechish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



2-jadval: Yuqori tartibli tenglamalarni o'qitishning pedagogik natijalari

Ko'rsatkich	Ikkinchi tartibli tenglamalar	Yuqori tartibli tenglamalar	O'sish foizi
Matematik abstrakt fikrlash darajasi	O'rtacha	Yuqori	45%
Murakkab masalalarni yechish qobiliyati	Asosiy	Rivojlangan	60%
Sonli usullarni qo'llash ko'nikmalari	Oddiy	Kengaytirilgan	75%
Fanlararo integratsiya tushunchasi	Cheklangan	Keng qamrovli	55%

Ikkinchi jadval pedagogik tahlil natijalarini aks ettirib, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitish talabalarning bilim va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini yaqqol ko'rsatadi. Jumladan, matematik abstrakt fikrlash darajasining 45 foizga, murakkab masalalarni yechish qobiliyatining 60 foizga hamda sonli usullarni qo'llash ko'nikmalarining 75 foizga oshgani ushbu bo'limning ta'lim jarayonidagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, sonli usullarni qo'llash ko'nikmalaridagi yuqori o'sish ko'rsatkichi zamonaviy ta'limda hisoblash texnologiyalari bilan ishlash malakalarining muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, fanlararo integratsiyani anglash darajasining 55 foizga oshishi talabalarning matematik bilimlarni fizika va muhandislik masalalarida qo'llash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanganidan dalolat beradi.

Mazkur ko'rsatkichlar yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining matematik fizika ta'limida strategik ahamiyatga ega ekanini asoslaydi hamda ushbu bo'limga o'quv dasturlarida yetarli vaqt va pedagogik resurslar ajratish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati nihoyatda yuqori ekani aniqlandi. Ushbu bo'lim talabalarning matematik apparatini kengaytirish, nazariy va abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda amaliy masalalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Yuqori tartibli tenglamalarni o'rganish talabalarga zamonaviy fizika va muhandislikning dolzarb muammolarini anglash, shuningdek, sonli usullar va hisoblash texnologiyalari bilan ishlash malakalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, yuqori tartibli differensial tenglamalarni o'qitishda nazariy bilimlarni amaliy qo'llanishlar bilan uyg'unlashtiruvchi integrativ yondashuv eng samarali natijalarni ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, sonli metodlardan hamda vizualizatsiya vositalaridan foydalanish ushbu bo'limni o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu talabalarning matematik va fizik madaniyatini yuksaltirish, ularni ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatga puxta tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Shu bilan birga, matematik fizika tenglamalari fanida yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limiga ajratilgan auditoriya mashg'ulotlari ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur bo'limni o'qitishda amaliy masalalar, sonli yechish usullari hamda kompyuter modellash elementlarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga samarali xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Блехман И.И., Мышкис А.Д., Пановко Я.Г. Прикладная математика: предмет, логика, особенности подходов. – Киев: Наукова думка, 1976. – 270 с.
2. Salakhitdinov M.S., Islomov B.I. Matematik fizika tenglamalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 416 b.
3. Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. – Москва: Наука, 1977. – 735 с.
4. Владимиров В.С. Уравнения математической физики. – Москва: Наука, 1988. – 512 с.
5. Марчук Г.И., Агошков В.И. Введение в проекционно-сеточные методы. – Москва: Наука, 1981. – 416 с.
6. Мавлонов М.М., Салахитдинов М.С. Matematik fizika tenglamalari va ular uchun chegaraviy masalalar. – Toshkent: Uzbekiston, 2005. – 352 b.
7. Evans L.C. Partial Differential Equations. – Providence: American Mathematical Society, 2010. – 749 p.
8. Timoshenko S.P., Woinowsky-Krieger S. Theory of Plates and Shells. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 580 p.
9. Reddy J.N. Theory and Analysis of Elastic Plates and Shells. – Boca Raton: CRC Press, 2006. – 568 p.
10. Quarteroni A., Valli A. Numerical Approximation of Partial Differential Equations. – Berlin: Springer, 1994. – 543 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.